



CERTIFICATE

CONFIRMS THAT

Faryozbek Paxlavon o'g'li Mamatazizov

IS THE AUTHOR OF THE ARTICLE TITLED

**O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI
FARG'ONA VODIYSI MISOLIDA (1991-2021-YILLAR)**

PUBLISHED IN VOLUME 2, ISSUE 5, MAY, 2022

**JOURNAL OF Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies
(CARJIS)**

EDITORIAL SECRETARY



B. JURABOEV

ISSN-2181-2454

VOLUME 2

ISSUE 5

MAY 2022

CENTRAL
ASIAN
RESearch
JOURNAL FOR
INTERDISCIPLINARY
STUDIES

WE ARE ALWAYS WITH YOU



SJIF 2022: 5.9



CYBERLENINKA

EXACT SCIENCES
NATURAL SCIENCES
TECHNICAL SCIENCES
PEDAGOGICAL SCIENCES
MEDICAL SCIENCES
SOCIAL AND HUMANITARIAN
SCIENCES



SCAN ME

WWW.CARJIS.ORG

**CENTRAL ASIAN
RESEARCH JOURNAL FOR
INTERDISCIPLINARY
STUDIES (CARJIS)**

ISSN: 2181-2454

VOLUME 2 | ISSUE 5 | 2022

carjis.org

Interdisciplinary Studies, 2(5), 256-261. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-5-256-261>

39. Mamatazizov, F. P. (2022). O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI FARG,,ONA VODIYSI MISOLIDA (1991-2021-YILLAR). *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies*, 2(5), 262-272. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-5-262-272>

40. Якубов, С. Х., & Хушвоков, И. У. (2022). ВЫЧИСЛИТЕЛЬНЫЙ ЭКСПЕРИМЕНТ ПО РАСЧЕТУ ОПТИМИЗАЦИИ АРОК ПО ВЕСУ. *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies*, 2(5), 273-280. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-5-273-280>

41. Mamajanov, R. Y., & Xaydarov, S. I. (2022). KORXONA VA TASHKILOTLARDA ELEKTRON TABEL VA SAMARADORLIKNING MUHIM KO'RSATKICHINI BELGILASH. *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies*, 2(5), 281-289. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-5-281-289>

42. To'raqulova, N. (2022). MUALLIFLIK HUQUQI OBYEKTлари MUHOFAZASINI TA'MINLASHDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI. *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies*, 2(5), 290-300. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-5-290-300>

43. Norqobilov, S. R. (2022). STYLISTICS AND SPEECH CULTURE IN A LITERARY WORK. *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies*, 2(5), 301-306. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-5-301-306>

44. Nig'matova, N. U. (2022). ULAMOLAR TOMONIDAN TAFSIR SO'ZIGA BERILGAN TA'RIFLAR. *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies*, 2(5), 307-311. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-5-307-311>

45. Bozorov, E. H., & Zoirova, L. X. (2022). "QAYTA ALOQA" USULIDAN FOYDALANIB "RADIATSIYAVIY ZARAR VA IFLOSLANISH" MAVZUSIDAGI DARS-MA'RUZANI O'TKAZISH. *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies*, 2(5), 312-318. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-5-312-318>

46. Rasulov, M. A. (2022). O'ZBEK XALQ AMALIY SAN'ATINI TASHKIL TOPISHI VA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI. *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies*, 2(5), 319-329. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-5-319-329>

47. O'rinova, N. M., & Murodova, D. K. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL TA'LIMNING XUSUSIYATLARI. *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies*, 2(5), 330-338. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-5-330-338>

48. Шайхисламов, Н., & Шайхисламова, Р. (2022). ПРЕЗЕНТАЦИЯ

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI FARG'ONA VODIYSI MISOLIDA (1991-2021-YILLAR)

Faryozbek Paxlavon o'g'li Mamatazizov
Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti, tyutor
mamatazizovfaryozbek@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Farg'ona viloyati hududlarida Turizm rivojlanishi va uning muammolarini aniqlash va baholash maqsadida hududlar bir nechta indekslar asosida guruhlashtirilgan. Bunda sosiy 5 ta turistik ko'rsatkichlar asos qilib olingan va shakllantirilgan har bir guruh tahlil qilingan. Shuningdek viloyat hududlarida mavjud lekin past darajada rivojlangan turizm xo'jaliklari ham tahlil qilingan, muammolari aniqlanib amaliy takliflar ichlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Turistik guruhlashtirish, turistik areal, infrastruktura, indeks, ekoturizm, agroturizm, tarixiy turizm, savdo turizmi, etnoturizm(madaniy turizm), rekreatsiya, milliy hunarmandchiligi.

ABSTRACT

In this article, the regions of Fergana region are grouped on the basis of several indices in order to identify and assess the development of tourism and its problems. Each group was analyzed based on 5 main tourist indicators. Existing but underdeveloped tourism farms in the region were also analyzed, problems were identified and practical recommendations were developed.

Keywords: tourist grouping, tourist area, infrastructure, index, ecotourism, agrotourism, historical tourism, trade tourism, ethnotourism (cultural tourism), recreation, national crafts.

АННОТАЦИЯ

В данной статье регионы Ферганской области сгруппированы по нескольким показателям с целью выявления и оценки развития туризма и его проблем. Каждая группа была проанализирована по 5 основным туристическим показателям. Также были проанализированы существующие, но недостаточно развитые туристические фермы в регионе, выявлены проблемы и разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: туристическая группировка, туристическая зона, инфраструктура, индекс, экотуризм, агротуризм, исторический туризм, торговый туризм, этнотуризм (культурный туризм), отдых, народные промыслы [1].

KIRISH

Hozirgi davrda Turizm dunyoning juda ko'p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Odatda, Turizm turizm tashkilotlari orqali turizm marshrutlari bo'yicha uyushtiriladi. Turizmning juda ko'p turlari va shakllari mavjud (ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar).

O'zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi (27-iyul 1992-yilda tuzilgan) olib boradi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasini rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish va boshqalardan iborat.

"O'zbekturizm" milliy kompaniyasi sayohat qilish turiga qarab quyidagi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqqan: klassik yo'nalish (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent; Toshkent, Samarqand, BuxoroShahrisabz, Toshkent). Bu yo'nalish eng qad. yodgorliklar va boshqa tarixiymadaniy obidalarga tashrif bilan bog'liq; ekologik turizm yo'nalishi (Chimyon, Chorvoq dam olish va davolanish oromgohi, Zomin qo'riqxonasi, Buxoro viloyatidagi qo'riqxonalar). Bu yo'nalish alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va sayyohlar uchun ekologik jihatdan qulay g'amda foydali hisoblanadigan joylarga tashrif bilan bog'liq; arxeologik turizm yo'nalishi (Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Samarqand hududdari bo'ylab). Bu yo'nalish O'zbekistonning eng qad. topilmalari va arxeologik qazishmalar olib borilayotgan joylari bilan tanishishni maqsad qilib qo'yadi; ekstre mal turizm yo'nalishi (Chimyon, Farg'ona vodiysi, Orol bo'yi, Buxoro, Navoiy viloyati hududlari bo'ylab); liniy turizm yo'nalishi (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Toshkent) — mamlakatimizdagi tarixiy diniy obidalarni ziyorat qilish bilan bog'liq.

Turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, turistlar va turistik faoliyat sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni kabul kilingan (20-

avgust 1999). Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni (15-aprel 1999) sohani rivojlantirishda muhim omil bo'ldi.

Turizm tashkilotlarini takomillashtirish hamda kichik va o'rta turistik korxonalarining xizmat ko'rsatish mbozorini faollashtirish, shuningdek, xorijiy sarmoyani turizm sohasiga jalb qilish maqsadida 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan Toshkentda "Xususiy sayyoxlik tashkilotlari uyushmasi" tashkil etildi. U 300 dan ziyod turistik korxonalar bilan yaqindan aloqada bo'lib faoliyat olib boradi.

O'zbekistonda "Kumushkon" turistik bazasi va "Sanzar" kemping majmuasi mavjud bo'lib, ular "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tizimi tashkilotlari hisoblanadi. Shu bilan birga Chorvoq, Chimyon, Beldersoy dam olish oromgohlari va yuzga yaqin xususiy mehmonxonalar ishlab turibdi. O'zbekistonda ko'plab turistlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan mehmonxonalar soni tobora o'sib bormoqda.

O'zbekiston 1993-yilda o'z safiga 120 dan ortiq mamlakatni birlashtirgan Jahon turistik tashkiloti (WTO; 1975-yilda tuzilgan)ga a'zo bo'ldi. Shuningdek, O'zbekiston WTO Yevropa komissiyasi rayosatining ham a'zosidir. 2004-yil "Buyuk ipak yo'li" loyihasi doirasida Samarqand viloyatida Jahon turistik tashkilotining vakolatxonasini ochish ko'zda tutilgan. O'zbekistonda turizm sohasiga oid "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turistik reklamaaxborot gaz. (1994-yildan), "Biznes Gayd" JUR (RUS va ingliz tillarida) va boshqa ommaviy nashrlar chop etiladi.

2021-yil aprel oyida Dog'istonda O'zbekistonning ziyorat turizm salohiyati taqdimoti o'tkazildi. Bosh vazir o'rinbosari, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisi Aziz Abduhakimov topshirig'i bilan Dog'istonda «Imomlar yurtiga sayohat» yo'nalishidagi targ'ibot ishlari boshlangan [2].

Farg'ona viloyatidagi turizm markazlari.

№	Lisenzia stiri	Lisenzia t	Regi on	Pochtan deks	Manzil	Raqa mi	Beri ldi	Yo'na lish	Aloqa ma'lumoti	
									tel	Email

1	205094603	CHP "DOLINA LIANA "	Fergans kaya oblast	150109	g.Fyergana, ul. Xuvaydo, d.10	T-0072	25.08.2 017	Turistska ya deyatelnos t - Vnutrenn y turizm - Vyvezdn oy turizm - V'yezdno y turizm	+99873 242- 22-11, +99873 242- 29-66, +99899 999- 30- 10,+99893 480-28-94	15dolinaliana@mail.ru Veb-sayt www.lianatour.uz
2	304859288	ООО "AL- FERGANI- TUR"	Fergans kaya oblast	115102	g.Fyergana, ul. A.Yassaviy, d.36 A	T-0062	31.07.2 017	Turistska ya deyatelnos t - Vnutrenn y turizm - Vyvezdn oy turizm - V'yezdno y turizm	tel.mob.: (+99890) 407-63-80; rab.; (+99895) 401-47-48	al_fergtur@mail.ru
3	302552601	SP "DILKAM MAZZALI NON"	Fergans kaya oblast	150100	g.Fyergana, ul.Andijan, dom 65	T-1265- 16	20.09.2 016	Turistska ya deyatelnos t - Vnutrenn y turizm	+99890 535- 91-40	temirov.muzaffar@bk.ru
4	303088949	ООО "KOKAND LUXYe TOURISM"	Fergans kaya oblast	150100	g.Kokand, ul. Sarboz, dom 3	T-1058- 15	21.07.2 015	Turistska ya deyatelnos t - Vnutrenn y turizm - Vyvezdn oy turizm - V'yezdno y turizm	+99890 304- 08-80, +99873 542- 43-43	wetraveluz@bk.ru

5	204607263	CHP "MIR-JAHON "	Fergans kaya oblast	151800	Yaypan, ul. Ibn Sino, dom 69	T-1042-15	19.06.2015	Turistska ya deyatelnost - Vnutrenniy turizm - Vъyezdnoy turizm - Vъezdnoy turizm	+99871 231-15-35, +99897 773-35-15	info@mir-jahon.uz
6	302793524	ООО "VIATOR VIP TOURS "	Fergans kaya oblast	150100	g.Fyergana, ul. Komus, dom 45A	T-0894-14	12.11.2014	Turistska ya deyatelnost - Vnutrenniy turizm - Vъyezdnoy turizm - Vъezdnoy turizm	+99873 244-01-00, +99890 277-91-19,+99890 272-00-30	viator.vip.tours@mail.ru www.vvt.uz
7	301704292	ООО "FARGONA VODIY SAYYOX "	Fergans kaya oblast	150100	g.Fyergana, ul.Oriyat, dom 10	T-0731-14	10.06.2014	Turistska ya deyatelnost - Vnutrenniy turizm - Vъyezdnoy turizm - Vъezdnoy turizm	+99873 244-55-52, +99891 658-15-88	fvs.turizm@mail.ru www.fvs.uz
8	202689536	ООО "XAVO-SAYEX "	Fergans kaya oblast	150100	g. Fergana, ul. Al-Fergani, dom 20	T-0734-14	10.06.2014	Turistska ya deyatelnost - Vnutrenniy turizm - Vъyezdnoy turizm - Vъezdnoy turizm	+99873 244-11-18, +99873 244-10-94, +99893 181-75-95	temirov.muzaffar@bk.ru

9	203471095	ООО "XAVO- SAYYOX"	Fergans kaya oblast	150710	g. Kokand, ul. I. Buxoriy, dom 5	T-0733- 14	10.06.2 014	Turistska ya deyatelnos t - Vnutrenn iy turizm - Vyeyzdn oy turizm - V'yezdno y turizm	+99873 542- 31-02, +99894 640- 20-10	havosaiyoh@mail.ru www.havosaiyoh.com
10	305069273	«AZIMUT- AIR- TRADE» M CHJ	Fergans kaya oblast		P. Maxmud ko'chasi, 19 uy	T-234	22.05.2 018	Turistska ya deyatelnos t - Vnutrenn iy turizm - Vyeyzdn oy turizm - V'yezdno y turizm	+998 90 3034921	
11	304961154	«BEST TRAVEL COMPANY» MCHJ	Fergans kaya oblast		Sayilgox ko'chasi, 43 A uy	T-235	22.05.2 018	Turistska ya deyatelnos t - Vnutrenn iy turizm - Vyeyzdn oy turizm - V'yezdno y turizm	+998934832 116	
12	305199603	«MASHXUR A TRAVEL» O K	Fergans kaya oblast		Tinchlik, Topvoldiyev ko'chasi, 8 uy	T-250	25.05.2 018	Turistska ya deyatelnos t - Vnutrenn iy turizm	+998916522 907	
13	305209834	"Dilrabo Travel" O/K	Fergans kaya oblast		Farg'ona shaxar, Maorif ko'chasi 127uy	T-0001- 012	05.07.2 018	Turistska ya deyatelnos t - Vnutrenn iy turizm	+99891 662 42 28, 973370087	sadafbekfergana@ gmail.com

14	305218808	"Umid sayyox" MCHJ	Fergans kaya oblast		Fargona vil., Bag'dod tumani, Kushchinor ko'chasi, 10	T-0273	20.07.2018	Turistska ya deyatelnost - Vnutrenniy turizm	954856905, 911455826	
15	305218808	"DOLINA ZOLOTAYA" MCHJ	Fergans kaya oblast	150105	Farg'ona shahar, Universitet ko'chasi 65/8	T- 0002-012	26.08.2018	Turistska ya deyatelnost - Vnutrenniy turizm - Vyezdnoy turizm - V'yezdnoy turizm	(90)561-17-15, (0-373)226-18-08	dolinazolotaya@mail.ru
16	305 675 454	"ALMAZ VIA TOUR" MCHJ	Fergans kaya oblast	150100	Farg'ona shahar, C.Temur ko'chasi 33b uy	T- 0003-012	25.09.2018	Turistska ya deyatelnost - Vnutrenniy turizm - Vyezdnoy turizm - V'yezdnoy turizm	(91)677-37-57, (91)653-88-67	almazviatour@mail.ru
17	305 679 155	"GLOBAL ASIA GROUP" MCHJ	Fergans kaya oblast	150100	Farg'ona shahar, A.Yassaviy ko'chasi, 46/48 uy orasida	T- 0004-012	23.10.2018	Turistska ya deyatelnost - Vnutrenniy turizm - Vyezdnoy turizm - V'yezdnoy turizm	(93)540-55-56, (91) 206-55-56	info@globalasiagro.oup.com www.globalasiagro.oup.com

18	200 192 896	"MEHRIGIYO" X/K	Fergana kaya oblast	151600	Uchko'prik tumani, Yangiqishloq Urozimergan qishlog'ida	T- 0005- 012	31.10.2 018	Turistska ya deyatelnos t - Vnutrenn y turizm - Vyvezdn oy turizm - V'yez dno y turizm	(90)586-24- 39	mehrigiyo1991@gmail.com www.mehrigiyo.uz
19	300 476 855	"SHOHJAH ON ISMOILJON DILYORBEG " MCHJ	Fergana kaya oblast	150811	Quva tumani, Dexqonobod QFY, Kattaqishloq 188 uy	T- 0006- 012	20.11.2 018	Turistska ya deyatelnos t - Vnutrenn y turizm - Vyvezdn oy turizm - V'yez dno y turizm	(91)115111 0	nosirbek_1110@mail.ru

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston o'zining ko'plab tarixiy-me'moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur'atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o'ziga tortmoqda.

Asrlar mobaynida O'zbekiston Buyuk ipak yo'lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, jo'g'rofiyashunoslar va missionerlar, isti'lochilar va zabt etuvchilarning yo'lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O'zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an'ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Toshkent. Toshkent – O'zbekistonning poytaxti va Markaziy Osiyodagi eng katta shaharlardan biri. O'zbekiston o'tmishdagidek hozirgi paytda ham Toshkent o'zimizning O'zbekiston Havo Yo'llari va xalqaro aviakompaniyalar yordamida xalqaro transport yo'nalishlarining chorrahasidir.

Bugungi kunda O'zbekistonda yuzga yaqin muzeylar ishlab turibdi va ularning yarmi mamlakatning poytaxtida joylashgan. Ularning har biri o'zbek xalqining boy madaniy merosini aks ettiradi. Poytaxt markazida Temuriylar tarixi Davlat Muzeyi joylashgan bo'lib, uning ulkan ko'k gumbazi Samarqandning qadimiy gumbazini eslatadi. Uning eksponatlari O'zbekiston hududida o'rta asrlardagi davlatchilik shakllarini shakllanishidan guvohlik beradi va Amir Temur davridagi fan, madaniyat

va san'atning rivojlanishini aks ettiradi.

Samarqand. Asrlar mobaynida O'zbekiston shaharlari Buyuk ipak yo'li va qadimiy transkontinental magistral hayotida muhim rol o'ynadi. Birgina Samarqand esa "Buyuk Ipak yo'lining yuragi" deb nom oldi.

Qadim davrlarda Samarqand "Islom me'morchiligi marvaridi", "Dunyo ko'zgusi" kabi nomlar bilan ta'riflangan. Qadimiyligi bilan Rim, Afina va Vavilonga teng bo'lgan Samarqand o'zining 2750 yilligini nishonladi. Afsonaviy Registon maydoni Markaziy Osiyoning takrorlanmas me'moriy yodgorligidir. Qadimda bu maydon Samarqandning savdo va ijtimoiy markazi bo'lgan. Bu yerda bir necha asrlik uch ulkan binolari Ulug'bek, Sherdor va Tillaqori madrasalari qad ko'targan.

Go'ri-Amir maqbarasi qadim Samarqandning yana bir marvarididir. Buyuk davlat hukmdori Amir Temur va uning ikki nevarasi jumladan sharqning buyuk olim va mutaffakiri Mirzo Ulug'bek qabrlari joylashgan. Havorang lolalarning yaproqlari tig'iz qilib joylashtirib chiqilgan g'unchaga o'xshash Go'ri-Amir maqbarasi sayyohlar uchun juda taniqli joy.

Buxoro. Qadimdan Buxoro vohaning zich aholiga ega markazi bo'lib kelmoqda. Uning yoshi 2500 da. Qulay muhit va 140 dan ortiq qadimiy me'moriy yodgorliklarni saqlab qolgan Buxoro sayyohlarning eng sevimli joylaridan biri bo'lib qolaveradi. Huddi to'r bilan qoplangan Ismoil Samoniy maqbarasi, ulkan qo'rg'on va Buxoro hukmdorining mustahkam qarorgohi Ark, Minorai Kalon, jonli labirint kabi ko'plab masjid va madrasalar, karvon-saroilar, hammom kabi yodgorliklar muqaddas Buxoroning tengi yo'q marvaridlaridan bo'lib qoladi.

Mehmonxonalar. Qadimdagi karvonsaroilar o'rnini zamonaviy qulay mehmonxonalar egalladi. Sayyohlik hududlarda joylashgan mehmonxonalar har qanday mehmonning talabini qondirishi mumkin. Yagona "qiyinchilik" didga mos keluvchi dizayn yoki komfortni tanlashda bo'lishi mumkin. Yevropa uslubini hush ko'ruvchilar uchun zamonaviy interyerlarga ega mehmonxonalar, aksincha sof ma'nodagi sharqona muhitni hohlovchilarga esa o'zining naqshli eshiklari, rang-barang gilamlardan tortib sharqona ayvonlargacha ega bo'lgan mehmonxonalar ham muhayyodir. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Urganch kabi katta shaharlardagi birinchi darajali mehmonhonalardan foydalanishingiz mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 350 dan ortiq mehmonhonalarda sayyohlarni qabul qilib xalqaro standartlarga mos ravishda xizmatlar ko'rsatmoqda.

Transport. O'zbekiston hozirda rivojlangan transport infrastrukturasiga ega. Manzilga yetib olishingiz uchun sizga Buyuk Ipak Yo'li davridagidek bir oy kerak

emas. O'zbekiston bo'ylab katta shaxarlarga aviatsiya yordamida yetib olish tez va qulay. Sayyohlar mamlakatning chiroyli manzaradan qulay va tez bo'lgan transport vositasi mashina yoki avtobuslardan foydalanadilar.

Aktiv sayohatlar. O'zbekiston faqatgina tarixiy va afsonaviy me'morchiligi bilan mashxur bo'lib qolmasdan, aktiv sayyohlik yo'nalishlariga ham ega. Mamlakatimizning geografik jihatdan qulay joylashganligi bu yerda zamonaviy qulaylik va yovvoyi tabiatning uyg'unlikka kirisha olishiga inkoniyat beradi. O'zbekiston hududida har qanday tabiat landshaftlarini; tog', vodiylar, cho'l, daryo va ko'lni uchratish mumkin.

Otda sayr. Otda yurish har qanday yoshdagi va har qanday temperamentdagi odamga zavq bag'ishlaydi. Va bu bilan yil bo'yi betakror iqlim sharoitlarida shug'illanish mumkin.

Otda yurishning eng mashxur yo'nalishlaridan biri bu o'zining flora va faunasi bilan mashxur bo'lgan Ugam-Chotqol milliy bog'idir. Toshkentdan go'zal vodiylar dengiz sathidan 1600 metr balandligda bo'lgan katta va kichik Chimyon tog'lari etagida joylashgan dam olish maskani "Chimyon oromgohi" ga 90 kilometrlik masofani otda bosib o'tishlari mumkin. Bu yerda mahalliy otlar zotidan qurama qorabair va shuningdek axalteklari zotli otlarda sayr qilish mumkin. Tog' havosining turli xil gullar va o'simliklarning isbi bilan to'lgan musaffoligi, egarning g'ichrlashi, o't tuyoqlarining bir xilda taqillashi va ochiq osmon ostidagi hissiyotga to'la kechki nonushta bir umrga unutilmas taasurotlar qoldiradi.

Hukumat va turizm. O'zbekistonda turizm sohasi nisbatan yangi bo'lsada, u rivojlanishda ko'pgina sohalardan oldinga chiqib oldi. Xalqaro turizmni rivojlantirish uchun bizning diyor juda katta salohiyatga ega. Yigirma yil avval O'zbekistonni hech kim istiqbolli turizm hududi sifatida bilmas edi. Mustaqillikka erishilgach davlat tomonidan turizm sohasida yangi tamoyillar ishlab chiqildi. 1992 yilning 27 iyulida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti farmoni bilan "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tashkil topdi. "O'zbekturizm" ning asosiy vazifasi turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirish va turizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratishdan iborat.

Bundan tashqari O'zbekistonning turistik salohiyatini qo'llab-quvvatlashda UNWTOning rahnamoligida o'tadigan, Toshkentdagi xalqaro "Ipak yo'lidagi turizm" yarmarkasining ham ahamiyati juda katta. Bu yarmarkaning asosiy maqsadi turizm sohasidagi o'zbek hamda horij mutahassislarini birlashtirish, ular o'rtasida professional hamkorlikni yanada kengaytirishdan iborat. Bugungi kunga kelib bu

xalqaro yarmarka Markaziy Osiyodagi eng yirik ko'rgazmalardan biri sifatida nom qozongan.

XULOSA

Afsonaviy o'tmishi, Ipak Yo'lining tarixiy-muhandislik merosi, tabiatining ajoyib manzaralari, avloddan-avlodga o'tib keluvchi mahalliy hunarmandchilik, xalqning mehmondo'stligi va insoniy qadriyatlari bilan sayyohlarni hayratga soluvchi, mahliyo qiluvchi shu bilan birga ularni hursand etuvchi O'zbekiston barcha burchaklaridan kishilarni o'ziga jalb etadi [3].

REFERENCES

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-turizmni-rivojlantirish-tarixiga-nazar>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Turizm>
3. <http://www.uzbekistan-geneva.ch/turizm-191.html>